



## Sirdaryo viloyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ish haqi ko'rsatkichlarini umumlashtirish natijasida, 2020-yil yanvar-mart oylarida Sirdaryo viloyatida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2 218,1 ming so'mni (ish haqiga ustama, mukofot, rag'batlantirish xususiyatiga ega to'lovlar, kompensatsiya va ishlanmagan vaqt uchun haq kabi to'lovlar kiritilgan, shuningdek uning tarkibida jismoniy shaxslar daromad solig'i, ijtimoiy sug'urta va kasaba uyushmasiga to'lovlar ham mavjud) tashkil etdi.

### Tarmoqlar kesimida o'rtacha oylik ish haqi (2020-yil yanvar-mart, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'yektlaridan tashqari)

	<i>Xodimlar soni, kishi</i>	<i>Ish haqi fondi, mlrd. so'm</i>	<i>O'rtacha oylik ish haqi, ming so'm</i>
<b>Viloyat bo'yicha-jami</b>	<b>69069</b>	<b>459,6</b>	<b>2218,1</b>
<i>shu jumladan:</i>			
sanoat	11480	73,0	2083,9
qurilish	391	4,0	2983,4
savdo	1065	9,1	2764,6
Tashish va saqlash	1577	8,1	1699,2
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	33	0,1	1426,9
Axborot va aloqa	61	0,5	2454,0
bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik	1959	23,8	4009,5
Ta'lim	27006	174,8	2128,8
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	13738	81,8	1965,2
San'at, ko'ngil ochish va dam olish	503	2,4	1593,6
Boshqa faoliyat turlari	11256	82,0	2420,1

O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini viloyat tumanlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, ya'ni o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Shirin shahrida **2 790,5** ming so'mni (viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan **125,8 %**), Guliston shahrida **2 485,2** ming so'mni (**112,0 %**) va Yangiyer shahrida **2 369,7** ming so'mni (**106,8 %**) tashkil etgan bo'lsa, Mirzaobod tumanida **1 508,2** ming so'mni (**68,0 %**) tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo'lmoqda.

### Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi (2020-yil yanvar-mart, viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan, % da)




**Ma'lumot uchun:** Ma'lumot uchun: "O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi" ko'rsatkichi iqtisodiyotda ish haqini baholashning uslubiy qoidalariga va xalqaro tavsiyalarga muvofiq, muayyan vaqt (soat, oy, yil) davomida xodim tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar (bajarilgan ishlar yoki ko'rsatilgan xizmatlar) evaziga ish beruvchilar tomonidan amaldagi qonun hujjatlariga asoslangan holda, soliq va boshqa to'lovlarni o'z ichiga oluvchi yollanma xodimlarning mehnatiga haq to'lash tarzida jismoniy shaxslarga pul shaklida hisoblangan daromadlardan aniqlanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.12.2019 yildagi 4555-son "Ish haqi, pensiyalar, stipendiyalar va nafaqalar miqdorini oshirish to'g'risida"gi Qaroriga muvofiq, joriy yilning 1 fevralidan boshlab mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori 679 330 so'mni tashkil etadi.

**Sirdaryo viloyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**  
(qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik  
sub'yektlaridan tashqari, ming so'm)

	<b>2019-yil Yanvar- mart</b>	<b>2020-yil Yanvar- mart</b>	<b>O'sish sur'ati, %</b>
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>1 786,4</b>	<b>2 218,1</b>	<b>124,2</b>
Guliston sh.	1 925,7	2 485,2	129,1
Shirin sh.	2 256,4	2 790,5	123,7
Yangiyer sh.	1 901,9	2 369,7	124,6
<i>tumanlar:</i>			
Oqoltin	1 633,2	2 046,8	125,3
Boyovut	1 624,2	2 172,1	133,7
Guliston	1 579,0	1 988,4	125,9
Sayxunobod	1 791,8	2 340,0	130,6
Mirzaobod	1 563,4	1 508,2	96,5
Sardoba	1 608,7	2 013,0	125,1
Sirdaryo	1 708,9	2 003,4	117,2
Xovos	1 696,0	2 227,1	131,3

## Sirdaryo viloyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

2020-yil yanvar-mart (dastlabki ma'lumot)



**Ish haqi.** 2020-yilning yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ish haqi tahlili quyidagilarni ko'rsatmoqda:



- Sanoat iqtisodiy faoliyat turida 11,5 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 16,6 % ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 73,0 mlrd. so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 15,9 % ni) tashkil etgan. Sanoat sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2083,9 ming so'mni tashkil etdi.



- Qurilish iqtisodiy faoliyat turida 0,4 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 0,6 % ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 4,0 mlrd. so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 0,9 % ni) tashkil etgan. Qurilish sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2983,4 ming so'mni tashkil etdi.

## Sirdaryo viloyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

2020-yil yanvar-mart (dastlabki ma'lumot)



•Ahborot va aloqa faoliyat turida 61 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 0,1 % ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 0,5 mlrd. so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 0,1 % ni) tashkil etgan. Ahborot va aloqa sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2454,0 ming so'mni tashkil etdi.



•Tashish va saqlash faoliyat turida 1,6 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 2,3 % ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 8,1 mlrd. so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 1,8 % ni) tashkil etgan. Ahborot va aloqa sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 1699,2 ming so'mni tashkil etdi..

.Ta'lim sohasida 27,0 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 39,1 % ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 174,8 mlrd. so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 38,0 % ni) tashkil etgan. Ta'lim sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2128,8 ming so'mni tashkil etdi





.Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik sohasida 2,0 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 2,9 % ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 23,8 mlrd. so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 5,2 % ni) tashkil etgan. Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 4009,5 ming so'mni tashkil etdi.

.Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasida 13,7 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 19,8 % ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 81,8 mlrd. so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 17,8 % ni) tashkil etgan. Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 1965,2 ming so'mni tashkil etdi.

